



Practical and conceptual importance of international research on evaluation in ensuring the quality and effectiveness of national education

Akramjon MATKARIMOV¹

Family and Women Research Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2023

Received in revised form

15 December 2023

Accepted 20 January 2024

Available online

15 February 2024

Keywords:

international evaluation studies,
national education system,
quality and efficiency,
pedagogical necessity.

ABSTRACT

The importance of international experiences in the development of the national education system, including the application of international evaluation studies to the national education system, has been clarified based on numerous scientific analyses. The article described the pedagogical necessity of applying international evaluation studies to the national education system. The practical importance of evaluation studies in the development of the national education system was also described.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss1/S-pp149-153>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Xalqaro baholash tadqiqotlarining milliy ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashdagi amaliy va konseptual ahamiyati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

xalqaro baholash tadqiqotlari,
milliy ta'lim tizimi,
sifat va samaradorlik,
pedagogik zarurat.

Maqolada xalqaro baholash tadqiqotlarini milliy ta'lim tizimiga tatbiq etishning pedagogik zarurati tavsiflandi. Shuningdek, baholash tadqiqotlarining milliy ta'lim tizimini rivojlantirishdagi amaliy ahamiyati haqida fikrlar bayon etildi.

¹ Doctoral Student, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Family and Women Research Institute,
E-mail: akramjon14@list.ru

Практическое и концептуальное значение международных исследований по оценке в обеспечении качества и эффективности национального образования

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

международные
оценочные исследования,
национальная система
образования,
качество и
эффективность,
педагогическая
необходимость.

Важность международного опыта в развитии национальной системы образования, включая применение международных оценочных исследований, была подтверждена на основе обширного научного анализа. В статье рассматривается педагогическая необходимость использования международных исследований в оценке национальной системы образования. Также описывается практическая значимость оценочных исследований для развития национальной системы образования.

Ta'lim – nafaqat o'quvchilarga biror narsani o'rgatish, balki ularni tobora murakkablashib va o'zgarib borayotgan dunyoda o'ziga bo'lgan ishonch bilan ildam harakatlanish uchun yordam beradigan zaruriy imkoniyatlar bilan ta'minlash jarayonidir [3.49]. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlarni joriy etish, mavjud tizimni qiyosiy tahlil qilish va zamon talablariga javob beradigan milliy baholash tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega [4. 21].

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va olimlari tomonidan xalqaro baholash tadqiqotlarini milliy ta'lim tizimiga tatbiq etishning ijtimoiy-pedagogik asoslariga doir fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda respublikamizda xalqaro baholash tadqiqotlarini milliy ta'lim tizimiga joriy etish va bu orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, ularda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan hayotiy-amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga tayyorlash ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi sifatida qayd etilmoqda. Buning uchun milliy ta'lim tizimi mazmunini tashkil etuvchi: o'quv dasturlari, darsliklar, o'qitish metodikasi va ta'lim natijalarini baholash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganilmoqda va bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda.

Xalqaro baholash tadqiqotlari natijalari ta'lim sohasida ilmiy dalillarga asoslangan siyosiy qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ular ta'lim sohasidagi islohotlarning samaradorligini ob'yektiv baholashni, ta'lim samaradorligini ta'minlashning ijtimoiy omillarini hisobga olishni, resurslarni taqsimlash, ta'lim sohasining barqarorligini va kelajagiga doir asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Xalqaro baholash tadqiqotlari natijalari va ularning turli davlatlardagi ilmiy tahlili asosida o'quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi ularning ta'limdagi muvaffaqiyati bilan chambarchas bog'liqligini, milliy ta'lim tizimi samaradorligi uning ijtimoiy jihatlarini hisobga olinishi va doimiy ravishda ta'lim tizimiga doir muammolar bilan birgalikda ijtimoiy masalalarni ham o'rganib borishni taqozo etishini yaqqol ko'rsatadi. Ta'limdagi ijtimoiy tengsizlikning sabablari xilma-xil va murakkab tushunchadir. Milliy ta'lim tizimi sohasiga doir ta'lim siyosati bu kabi ijtimoiy masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga

ega, ammo bu barcha ijtimoiy muammolarni hal qilinishida yagona yechim bo'la olmaydi. Ta'linga doir ijtimoiy muammolar umumta'lim maktablarining jamiyatning boshqa institutlari bilan hamkorligi, o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish, jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning taqsimoti hamda ta'limni moliyalashtirish, ta'limning ahamiyatini qadriyatlar darajasiga ko'tarilganligi kabi masalalar bilan o'rganish barobarida ijtimoiy masalalar hal bo'lib boradi. Ta'lim sohasidagi vazirliklar, boshqarmalarning ta'lim muammolarini hal qiluvchi yagona institut deb qaramaslik lozim bo'ladi.

Umumta'lim muassasalari o'quvchilari ta'limdagi yutuqlarini xalqaro tadqiqotlar hamda milliy tadqiqotlar asosida baholash orqali quyidagilarga erishish mumkin:

- milliy ta'lim tizimining yutuq va kamchiliklari yuzasidan o'z vaqtida axborot olish;
- ta'lim tizimida olib borilayotgan chora-tadbirlar va dasturlarning ta'sirini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi;
- ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakatning nufuzini mustahkamlashga yordam beradi;
- o'quvchilarning bilimi, salohiyati va savodxonligining qay darajada shakllanganligini bilish hamda xalqaro miqyosda taqqoslash;
- ta'lim muassasalaridagi joriy etilgan o'qitish usullarini boshqa mamlakatlardagi usullardan farqli jihatlari haqida tasavvurga ega bo'lish;
- o'quvchilarning savodxonlikni rivojlantirishga oid darslar maktablarda qanday tashkil etilganligi haqida ma'lumot olish;
- ota-onalar tomonidan o'quvchilarning bilimi va savodxonligini yaxshilashda qo'shilayotgan hissalarini salmog'ini bilish;
- o'quvchilarni fanlararo uyg'unlik asosida baholash, dunyo bo'yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta'lim jarayonlarini chuqur tahlil qilish;
- ta'lim sifati va samaradorligiga yangicha qarash, zamonaviy, kompetensiyaviy yondashuvlar, ya'ni o'quvchilarning olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini baholash va rivojlantirish yondashuvini olib kirish;
- shuningdek tizimda tub islohotlar va burilishlarga sabab bo'ladigan strategik qarorlar qabul qilish uchun zaruriy ma'lumotlarni olish imkoniyatlari yaratiladi.

Ushbu islohotlar orqali o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etishga yo'naltiriladi. Shunday ekan, milliy ta'lim tizimidan farqli bo'lganligi sababli mazkur tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish, shu orqali ta'lim sifatini oshirishga erishish uchun umumta'lim muassasalari jamoalaridan yuksak mas'uliyat, o'quvchilardan yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik, shuningdek o'qituvchilar zamonaviy innovatsion o'qitish usullarini o'zlashtirishi lozim bo'ladi.

Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekistonga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- tadqiqotlardan olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi;
- natijalar milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi;

– xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy dasturlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarda monitoring dasturlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi;

milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro dasturlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

Xalqaro baholash tadqiqotlarining konseptual asoslari tahlilining baholash tadqiqotlarining milliy ta'lim tizimini rivojlantirishdagi amaliy ahamiyati katta. Jumladan, xalqaro baholash tadqiqotlari natijalari ishtirokchi davlatlarning ta'lim siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi hamda ta'lim siyosatining yo'nalishlarini belgilab olishga yordam beradi. Xalqaro baholash tadqiqotlari o'quvchilarning butun hayoti davomida o'qib-o'rganishga ijobiy munosabatda bo'lishiga, o'qishga bo'lgan motivatsiyasini ortishiga, o'quvchilarni o'rganish strategiyalarini aniqlab olishida qo'llab-quvvatlaydi. Xalqaro baholash tadqiqotlari har ikki yoki uch yilda o'tkaziladi va ishtirokchi davlatlar ta'lim tizimini tizimli, doimiy milliy monitoringini o'tkazish hamda u maktab ta'limi maqsadlarini amalga oshirishni takomillashtirish imkoniyatini beradi. Baholash tadqiqotlari o'qituvchilardan o'quv jarayonida qo'llaniladigan topshiriqlarning sifatini baholash, o'quvchilarning o'rgangan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlari, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar bilan boyitishiga turtki beradi. Shuningdek, xalqaro baholash tadqiqotlari maktablar, aholining ijtimoiy tabaqalari, jinsi, kelib chiqishi, hududlar va davlati bo'yicha natijalarni umumlashtiradi va jamiyatning turli jabhalari uchun ta'limga oid statistik ma'lumotlarni taqdim etadi.

Xalqaro baholash tadqiqotlarining vazifasi unda ishtirok etuvchi davlatlar, ta'limga mas'ul vazirlik va idoralarining oldida turgan quyidagi savollarga javob topishida zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iboratdir:

– o'quvchilar majburiy ta'lim so'nggida demokratik jamiyatda faol fuqarolik rolini olishga yetarli tayyorlanganmi?

– o'quvchilar o'z g'oya va tasavvurlarini tahlil qilish, asoslash va shular asosida muloqot qila olish ko'nikmasiga egami?

– o'quvchilar hozirgi mehnat bozori talablari asosida maktabda ta'lim olayaptimi?

– o'quvchilar “butun hayot davomida o'qish” konsepsiyasi talablariga javob beradimi? [1;9].

Xalqaro baholash tadqiqotlari konsepsiyasiga ko'ra baholash tadqiqotlarining bosh maqsadlari quyidagi savollarga javob izlash sifatida belgilab o'tilgan: o'quvchilarning ilmfan, jamiyat talablariga javob berishi qanday holatda? Baholash tadqiqotlarining bosh maqsadi maktabda o'rganayotgan bilimlarini o'quvchilar tomonidan kundalik hayotda qo'llanishi holati qanday ekanligini aniqlashdan iborat [2; 266].

Xalqaro baholash tadqiqoti milliy davlat ta'lim standartlarining kompetensiyaviy yondashuvli didaktik tamoyil asosida shakllanganligini taqozo etadi. Baholash tadqiqotlarida nazarda tutilgan kompetensiyaviy yondashuv ko'p jihatdan jamiyat va mehnat bozori talablari asosida jamiyatning faol a'zolari, bo'lg'usi mutaxassislar, yetuk hayotiy-amaliy kompetensiyalarga ega shaxsga nisbat beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bildungsmonitoring Schweiz: Für das Leben gerüstet? Die Grundkompetenzen der Jugendlichen-Nationaler Bericht der Erhebung // PISA 2000. – p. 91.
2. Reiss K., Weis M., Klieme E., Köller O. Grundbildung im internationalen Vergleich // Waxmann 2019 Münster, New York. – p. 266.
3. Исмаилов А. А. Ўқувчиларнинг таълимдаги ютуқларини баҳолаш: танлов рамкасини шакллантириш // Замонавий таълим, 12. 2021. -49-56b.
4. Шляйхер А. Образование Мирового уровня. Как выстроить школьную систему XXI века? //Издательство Национальное образование. ФИОКО Москва. 2019. - 27с.